

Моя профессиональная
карьера

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER

ISSN

2782-4365

Проверить
номер:



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №59-4 (том 2)
(февраль, 2025)



Проверить индексацию статьи. Сайт: mpcareer.ru/google



Свидетельство
о регистрации СМИ
№ЭЛ ФС 77-77927
от 19.02.2020 г.



РОСКОМНАДЗОР

Периодичность выпуска: 1 раз в неделю
Сайт: mpcareer.ru/oinv21veke. Почта: obrmpcareer@mail.ru



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

ISSN 2782-4365

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №59-4 (том 2) (февраль,
2025). Дата выхода в свет: 03.03.2025.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

Абдурасулов Абдуллажон Абдукаримович	доктор философии педагогических наук
Азамов Жасурбек Муродович	доктор философии в области юриспруденции
Артикова Мухайохон Ботиралиевна	доктор педагогических наук, доцент
Ахмедов Ботиржон Равшанович	доктор философии в филолог. науках (PhD), доцент
Батулин Сергей Петрович	кандидат исторических наук, доцент
Бекжанова Айнура Мархабаевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Бекжанова Гулнара Маркабаевна	кандидат медицинских наук, преподаватель
Боброва Людмила Владимировна	кандидат технических наук, доцент
Богданова Татьяна Владимировна	кандидат филологических наук, доцент
Ботиров Аминжон Розимбоевич	кандидат биологических наук, доцент
Демьянова Людмила Михайловна	кандидат медицинских наук, доцент
Еремеева Людмила Эмировна	кандидат технических наук, доцент
Жуманова Фатима Ураловна	кандидат педагогических наук, доцент
Засядько Константин Иванович	доктор медицинских наук, профессор
Исломова Саидахон Тургуновна	доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент
Кабулова Мехрибан Толыбаевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD)
Казакова Раъно Машрабаевна	доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Кодиров Хасанбой Орибжонович	доктор философии педагогических наук
Колесников Олег Михайлович	кандидат физико-математических наук, доцент
Коробейникова Екатерина Викторовна	кандидат экономических наук, доцент
Ланцева Татьяна Георгиевна	кандидат экономических наук, доцент
Мухамедова Лола Джураевна	доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Нарзикулова Фируза Ботировна	доктор психологических наук
Нобель Артем Робертович	кандидат юридических наук, доцент
Ноздрин Наталья Александровна	кандидат педагогических наук, доцент
Нуржанов Сабит Узакбаевич	доктор историч. наук (dsc), старший научный сотрудник
Олтаев Шавкат Собирович	кандидат экономических наук, доцент
Павлов Евгений Владимирович	кандидат исторических наук, доцент
Петрова Юлия Валентиновна	кандидат биологических наук, доцент
Попов Сергей Викторович	доктор юридических наук, профессор
Расулходжаева Мадина Ахмаджоновна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент

Рахматова Фотима Ганиевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Рахмонов Азизхон Боситхонови	доктор педагогических наук, доцент
Таспанова Айзада Кенжебаевна	доктор философии (PhD) по экономическим наукам
Таспанова Жыгагул Кенжебаевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Табашникова Ольга Львовна	кандидат экономических наук, доцент
Тўрабоева Мадинахон Рахмонжон кизи	кандидат педагогических наук, доцент
Тюрин Александр Николаевич	кандидат географических наук, доцент
Уразова Лариса Карамовна	кандидат исторических наук, доцент
Усубалиева Айнура Абдыжапаровна	кандидат социологических наук, доцент
Утегенова Жамила Джолмурзаевна	доктор философии по эконом. наукам, доцент
Фаттахова Ольга Михайловна	кандидат технических наук, доцент
Ширинов Отабек Тувалович	доктор психологических наук (PhD)
Хамдамова Ситора Сафаровна	Доктор философии в области философских наук, доцент
Ханбабаев Хакимжан Икрамович	доктор педагогических наук (DSc)
Худайкулов Хол Джумаевич	доктор педагогических наук, профессор
Худойбердиева Хурият Каримбердиевна	доктор философии (PhD) в социальной философии
Ширинов Отабек Тувалович	доктор психологических наук (PhD)
Эшназаров Журакул	кандидат педагогических наук, профессор
Эшназарова Фарида Журакуловна	доктор философии по философии (PhD)
Юнусова Бахора Ахтамжоновна	кандидат филологических наук, ассистент
Яхяева Сожида Абдурахимовна	доктор философии (PhD) в социальной философии

СОДЕРЖАНИЕ

Название научной статьи, ФИО авторов	Номер страницы
ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ	
Feruzza Abdushukurovna Normamatova PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PREPARING PRESCHOOL EDUCATION PROFESSIONALS FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES	17
Normetov Tohirjon Xamitovich JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUHOJAJATLARINI KO'RIB CHIQUISHNING TARTIBI	22
Nurboyeva Dilnoza Zoirovna AWAKENING OF PRESCHOOLERS THEIR INTEREST IN BOOKS	28
Омарова Хауахан Сулаймановна СУЩНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА	35
Joldasova Gulsara Abatbayevna, Abdumalikova Dilnoza Odiljon qizi PLANIMETRIYANING MANTIQUIY TUZILISHI	39
Mirzayev Shukrillo Nabijon o'g'li VIRUSES AND THEIR EFFECT ON THE LIVING ORGANISM: VIRAL DISEASES	45
Bo'riyev Sunnatilla Xusnitdinovich UY QAMOG'I TARZIDAGI ENTIYOT CHORASI QO'LLANILGAN SHAXSLARGA NISBATAN ELEKTRON BRASLET DAN FOYDALANISH TARTIBI TATBIQ ETILDI	53
Д.А.Пирназарова ЭПИКАЛЬҚ ДӘСТҮРЛЕРЛЕРДИҢ ЖАЗБА ӘДЕБИЯТТАҒЫ КӨРИНИСЛЕРИ (БЕРДАҚ ДӨРЕТИҰШИЛИГИ МЫСАЛЫНДА)	58
Исмтеов Р.А. АҰЫЗ ЕКИ ДӨРЕТПЕЛЕРДЕ ЭТНОГРАФИЯЛЫҚ АСПЕКТЛЕР	67
M.R.Po'latxo'jayeva, Ubaydullayeva Sarvinoz ESHITISHDA NUQSONI BOLGAN BOLALARDA ESHITUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	73
Утамбетова А.Ж. Г.ЕСЕМУРАТОВАНЫҢ ГҮРРИҢЛЕРИНДЕ СЮЖЕТ ДҮЗИҰ ШЕБЕРЛИГИ	79
Шеримматов Журъатбек Шухратович МАҚОМ ШҰББАЛАРИНИҢ ТУЗИЛИШИДАГИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИҢ АҲАМИЯТИ	100

ФИО автора(-ов): *Normetov Tohirjon Xamitovich*

Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Название публикации: «JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARINI KO'RIB CHIQISHNING TARTIBI»

Аннотация. Ushbu maqola jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi qonunchilikni maqsadi, murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi, hamda davlat organlari va davlat muassasalari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash tartibi haqida boradi.

Калит so'zlar: murojaat, ariza, shikoyat, taklif, inson, jamiyat, davlat, konstitutsiya, demokratiya, fuqarolik jamiyati, demokratik institutlar, jamoat birlashmasi, nodavlat notijorat tashkilotlari

Аннотация. В данной статье речь идет об обращении физических и юридических лиц в государственные органы, порядке рассмотрения а также нормативных правовых документах, направленных на регулирование отношений между государственными органами и государственными учреждениями.

Ключевые слова: обращение, заявление, жалоба, предложение, государство, конституция, демократия, гражданское общество, демократические институты, общественное объединение,

“Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari mansabdor shaxslar tomonidan

amalga oshirilayotgan ommaviy boshqaruvni nazorat qilish usullaridan biridir.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi qonunchilik maqsadi davlat organlari va davlat muassasalariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgandir. Shu bilan birga, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, xo'jalik protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlar, shuningdek, davlat organlarining va ular tarkibiy bo'linmalarining o'zaro yozishmalari alohida maxsus belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.¹

Masalan "murojaat" – qonunchilikka binoan taklif, ariza va shikoyat shaklida bo'ladi. Mazkur murojaatlarni har biri o'zining xususiyatlariga ega. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Bunda hech kim biror-bir murojaatni himoya qilishga yoxud unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shu bilan birga, murojaat etish huquqining amalga oshirilishi boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak.

Murojaatlar asosan uchta muhim vazifani bajaradi:

Birinchidan, murojaatlar shaxslar huquqlarini himoya qilish vositasidir. Sud himoyasida bo'lish kabi, murojaatlar ma'muriy himoyalani ta'minlaydi. Ijro hokimiyatining murojaatlar yuzasidan ko'rayotgan choralarni ta'sirchanligi inson huquqini himoya qilishdagi muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, shaxslarning murojaati – bu ularning davlat boshqaruvida ishtirok qilishdagi konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishning shaklidir, demak, xalq hokimiyatini namoyon bo'lishining shakllaridan biridir.

Uchinchidan, fuqarolarning murojaatlari bu qayta aloqa vositasi, xalqning davlat qarorlariga nisbatan munosabatini ko'rsatkichidir. Demak murojaat qilish huquqidan shaxsiy, davlat va jamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyati yuzaga keladi.

O'z navbatida murojaatlarni ikkita asosiy klassifikatsiyasi mavjud: shakli

¹ "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Lex.uz

bo'yicha va mazmuni bo'yicha. Xususan, shakl bo'yicha murojaatlarning uchga bo'linadi: og'zaki, yozma va elektron.

Og'zaki murojaatlar masalalarni qonuniy ravishda tezkor hal qilishga xizmat qiladi. Murakkab bo'lmagan masala yuzasidan fuqarolar uchun og'zaki murojaat etish afzalliroqdir, chunki ko'rib chiqish muddati tezlashadi va osonlashadi.

Shu bilan birga yozma murojaatlarni o'ziga xos afzalliklari mavjud va ko'proq murakkab holatlarda qo'llaniladi. Yozma murojaatda murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs rahbarining yohud vakolatli shaxsning imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo'shimcha ravishda yozib qo'yilishi kerak.

Fuqarolarni elektron xabarlar (internet-murojaatlar) shaklidagi murojaatlarini qabul qilish, murojaat bilan ishlash va yozma javob yuborish uchun murojaat qiluvchi tomonidan rekvizitlarni to'ldirilishini ko'zda tutuvchi maxsus programma ta'minoti qo'llaniladi.

Murojaatlarni identifikatsiya qilish uchun ularga ma'lum talablar qo'yiladi. Jumladan, jismoniy shaxsning murojaatida jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan joyi (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak. Xususan, elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron hujjat shaklida bo'lishi kerak.

Elektron murojaat qonunda belgilangan talablarga muvofiq beriladi.

Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron hujjat shaklida bo'lishi kerak. Elektron murojaat qonunda belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Bunday talablar O'zbekiston Respublikasining

“Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida” va “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonunlarida belgilangan.²

Jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasiniig ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan joyi (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan yoxud ular haqida yolg‘on ma’lumotlar ko‘rsatilgan, shuningdek imzo (elektron raqamli imzo) bilan tasdiqlanmagan murojaatlar anonim murojaatlar deb hisoblanadi.

Murojaat etuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Murojaatlar davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin. Mazkur holat O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda) Qonunining 14-moddasida ham alohida belgilab qo‘yilgan.

O‘z navbatida, murojaatlar mazmunidan kelib chiqib uchta turga bo‘linadi: taklif, ariza, shikoyat.

Taklif – davlat va jamiyat, xususan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini, qonun va normativ huquqiy aktlarni takomillashtirishga doir tavsiyalarini o‘z ichiga olgan murojaat. Taklif murojaat qiluvchining huquqini himoyalash yoki amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Taklif kirituvchi o‘zining shaxsiy manfaatini ko‘zlamaydi, balki u davlat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining qarorlar qabul qilishga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Ariza – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos, shuningdek qonun va normativ huquqiy aktlarni buzilganligi, davlat yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining faoliyatidagi kamchiliklarni, ularni tanqid qilishga oid xabarnoma bayon etilgan murojaat. Ariza shakldagi murojaat ikkitasidan bitta maqsadni ko‘zlaydi: “ijobiy” yoki “salbiy”. Ijobiy maqsad biror bir huquqni amalga oshirishga ko‘maklashish iltimosidir. Salbiy maqsad huquqbuzarlik haqida xabar berishga qaratilgan.

Shikoyat – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni

² “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida” va “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuilari. Lex.uz

himoya qilish to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaat. Amaliyotda shikoyat murojaatni eng ko'p uchraydigan shaklidir. Shikoyatlar ikkita turga bo'linadi: birinchisi – ma'muriy, ya'ni suddan tashqari, ma'muriy tartibda hal etiladi; ikkinchisi – sud tartibida, ya'ni sud orqali hal bo'ladigan shikoyatlar.

Murojaatlarni yana bitta tasniflash uslubi mavjud – subyektlari bo'yicha. Bunda murojaat qiluvchilarni ikkita turga, ya'ni yakka tartibdagi va jamoaviy tartibdagi murojaat qiluvchilarga bo'lish mumkin.

Ammo murojaatlar, ularning turi va shaklidan qat'i nazar, bir xil ahamiyatga ega.

O'z navbatida murojaat qilish huquqi o'z huquqiy maqomiga ko'ra fuqarolarning konstitutsiyaviy-siyosiy huquqlar sirasiga kiradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolarning siyosiy huquqlariga taalluqli bo'lgan 40-moddasiga ko'ra: "Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart".

O'zbekistonda murojaatlarni ko'rib chiqish borasidagi faoliyat 2014-yil 3-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solingan.

Murojaatlar sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari xizmat qiladi. Xususan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015-yil 15-martda "Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash xaqida" 73-sonli qarori qabul qilindi.

O'z navbatida yuqoridagi qonun va mazkur nizomda elektron shaklda murojaatlarni amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Elektron murojaat shakli O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 2004-yil 29-apreldagi va "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi 2003-yil 11-dekabrda qonunlar bilan tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (Hukumat portali) orqali kelib tushgan murojaatlar elektron murojaatlar tarzida

qayd etiladi va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrda 378-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risidagi Nizom” talablari hisobga olingan holda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxslar tomonidan qilingan murojaatlarni lozim darajada ta‘minlamas ekanmiz, mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatni, strategik maqsadimiz bo‘lgan fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurish g‘oyasini xalqimiz ijtimoiy ongiga chuqur singdirish hamda jamiyatimizning bir yo‘nalishda og‘ishmay rivojlanishiga putur yetkazishi, har bir fuqaroning istiqbolda farovon hayot kechirish umid va ishonchlarini so‘ndirishi haqiqatga yakindir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida” va “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuilari.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda) Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015 yil 15 martda “Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash xaqida” 73-sonli qarori